

TALABALARDA VATANPARVARLIK TUYG‘ULARINI SHAKLLANTIRISHDA
SHARQ ALLOMALARINING ILMIY ME‘ROSINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI

Xamroyev Kamol Qahramonovich

Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta‘lim fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *ushbu maqolada talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o‘zi yashayotgan mamlakat, jamiyat ravnaqi, istiqboli uchun ulardan oqilona foydalanishga qaratilgan shaxs insonparvarligini tarbiyalovchi faoliyatni rivojlantirish, yuksak aql-zakovat egasi bo‘lib, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik, Vatani va xalqiga mehr-muhabbat, faxr va iftixor tuyg‘ulari bilan yashash, axlokiy-huquqiy burchni, mas‘uliyatni teran anglashi lozimligi va sharq allomalarining asarlari orqali buni anglashning mohiyati yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *yuksak, aql-zakovat, yaratuvchanlik, bunyodkorlik, tashabbuskorlik, Vatani va xalqiga mehr-muhabbat, faxr va iftixor, yashash, axlokiy-huquqiy burch, mas‘uliyat.*

Аннотация: *в данной статье в воспитании учащихся в духе патриотизма развивается деятельность, направленная на рациональное использование их для развития и перспектив страны, в которой они живут, развитие общества, развитие гуманизма, обладатель высокого интеллекта, творческих способностей, творчества, инициативы, любви к Родине и своему народу, необходимости жить с чувствами гордости и чести, необходимости глубокого понимания морального и правового долга и ответственности и сущности понимания этого через Освещены труды восточных ученых.*

Ключевые слова: *высокий уровень, интеллект, творчество, творчество, инициатива, любовь к Родине и своему народу, гордость и честь, жизнь, моральный и правовой долг, ответственность.*

Abstract: *in this article, in educating students in the spirit of patriotism, activities are developed aimed at their rational use for the development and prospects of the country in which they live, the development of society, the development of humanism, the owner of high intelligence, creative abilities, creativity, initiative, love for the Motherland and to their people, the need to live with feelings of pride and honor, the need for a deep understanding of moral and legal duty and responsibility and the essence of understanding this through the works of Eastern scientists.*

Key words: *high level, intelligence, creativity, creativity, initiative, love for the Motherland and one’s people, pride and honor, life, moral and legal duty, responsibility.*

Ta‘lim-tarbiya masalasi jamiyatda insonning paydo bo‘lishi davridanoq shakllana boshlagan va O‘zining turli-tuman shakllari va yo‘nalishlari asosida rivojlangan. Tarixga nazar solsak, O‘zbek xalqi O‘zining axloqiy-estetik madaniyatini qadimdan oq

afsonaviy obrazlarda ifodalab kelganiga guvoh bo‘lamiz. Milliy qahramonlarimiz – Shiroq, To‘maris, Alpomish, Jaloliddin Manguberdi kabi obrazlar orqali O‘z xalqiga fidokorlik, vatanga mehr-muhabbat, mardlik va fidokorlik, do‘stlik va sadoqat kabi xislatlar hayotiy tajribalar asosida xalqning ma‘naviyatiga singdirib kelingan. Ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilib kelinayotgan deyarli barcha asarlarda ta‘lim, tarbiya va odob axloq uning asosiy mazmunini tashkil etib kelgan. Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da keltirilgan oila va shar‘iy nikoh odoblari, ota-onalar va farzandlar munosabati, ularning burch va vazifalari, uylanish va kelin tanlash xususidagi g‘oyatda qimmatli fikrlar bugunda ham O‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shuningdek, “Avesto”da oila-nikoh munosabatlari, oilaviy burch va farzand tarbiyasi xususida bir qator fikrlar bayon qilingan. Xalqimiz uchun ma‘naviyat elchilari hisoblanmish Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abd ar-Rahmon ad-Dorimiy as-Samarqandiy Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Farg‘oniy kabi ko‘plab muhaddislar etishib chiqqan. Buyuk allomalarning yaratgan asarlarida odob-axloq va ilmga munosabatga alohida e‘tibor berilgan. Ajdodlarimizning nafaqat asarlari, balki ularning O‘zlari ham ta‘lim va tarbiyada barchaga o‘rnak bo‘la oladigan insonlar sifatida mashhur bo‘lganlar. Bu insonlarning buyuk allomalar sifatida shakllanishida, albatta, ularning oilaviy muhiti asosiy rol o‘ynagan. Allomalarning ota-onasi yoki yaqin qarindoshlari buyuk insonlarni yoshligidanoq ilm olamiga olib kirishda asosiy sababchi bo‘lgan. Manbalarda yozilishicha, Imom Buxoriyning (810-870) onasi nihoyatda oqila, diyonatli va fozila ayol bo‘lib, o‘g‘lining ko‘zi zaifligidan qattiq tashvishga tushgan va doimo uning ko‘rish qobiliyatini qaytarish uchun duoda bo‘lgan. Otasidan erta ayrilgan Imom Buxoriyning asosiy tarbiyachisi va ilm yo‘liga boshlovchisi onasi bo‘lgan. U farzand sifatida onasini juda hurmat qilgan va boshqalarni ham ota-onasini qadrlashga da‘vat qilgan. Imom al-Buxoriy ahamiyatiga ko‘ra Qur‘oni karimdan keyingi ikkinchi ma‘naviy manba deb e‘tirof etilgan “Al-Jome‘ as-Sahih” va undan keyingi “Al-adab al-mufrad” (“Adab durdonalari”) asarlarida axloq, odob, farzandlarni ota-onaga hurmatda bo‘lishga, onani e‘zozlashga, mehr-oqibatli, ilm o‘rganishga, pok va iymonli bo‘lishga da‘vat etgan. Imom al-Buxoriy madrasada toliblarga dars berish bilan bir qatorda, ularga maoshlar ham belgilagan. Manbalarda miskinlar va ilm ahlini doimo moddiy tomondan qo‘llabquvvatlaganligi alohida qayd etilgan. Uning pokiza va diyonatli inson sifatidagi tavsifi ko‘plab zamondoshlari tomonidan e‘tirof etilgan. Shuningdek, O‘zining shaxsiy hayotida ortiqcha dabdaba va behuda sarf-xarajatlarga yo‘l qo‘ymagani va nihoyatda sabr-toqatli inson ekanligi alohida qayd etilgan. Imom Buxoriyning shoh asari “Al-Jome‘ as-Sahih” bashariyatga qoldirilgan tengsiz ma‘naviy meros bo‘lib, islom dinida Qur‘oni Karimdan keyin e‘zozlanadigan ikkinchi manbadir. “Al-Jome‘ as-Sahih” ham diniy, ham dunyoviy ahamiyatga molik asardir. U har bir insonni O‘zi va mahzabidan qat‘i nazar iymon-e‘tiqodli bo‘lishga, halollik, poklik, rostgo‘ylik fazilatlarini qalbiga singdirishga, hayotini ezgulik, savob ishlarga bag‘ishlashga, O‘zidan

yaxshi nom qoldirishga da'vat etadi. Oila, farzand tarbiyasi, ota-onalar hurmatini joyiga qo'yish, ilm-ma'rifatli bo'lish, Vatanni sevish xususida shunday ajoyib g'oyalar va ta'limotlarga boyki, ular O'z ahamiyatiga ko'ra umumbashariy qimmatga egadir. Unda kundalik turmush muammolari, odob-axloq, kiyinish, muomala, rasm-rusmlar, savdo-tijorat singari inson bolasi har kun duch keladigan, jamiyatni yuksaltirishga ko'maklashadigan masalalar ifodalangan. Bu qisqa ma'lumotlar Imom Buxoriyning bebaho asarlari haqida emas, balki uni iqtidorli talaba, yuksak saviyali ustoz, pokiza va oliyjanob inson sifatidagi qirralarini ochib beradi. Uning bunday bebaho xislatlari dunyoda buyuk alloma sifatida shakllanishiga zamin bo'lib xizmat qilgan bo'lib, zamonamizning bugungi kundagi yoshlariga ibrat vazifasini o'taydi. Manbalarda Al-Hakim at-Termiziy (820-932) oilasi haqida bir qancha ma'lumotlar uchraydi. Uning onasi va bobosi hadis ilmining yetuk bilimdonlari hisoblangan. Otasi Ali ibn al-Hasan esa O'z davrida hadisilmining taniqli olimlaridan biri bo'lib, Hakim at-Termiziy: "Alloh taolo mening ustozim-validimdan judo qilganda men sakkiz yoshda edim. Uning sa'y-harakatlari bois men ilm olishga shunday berilib ketgandimki, kitob mutolaa qilish men uchun asosiy mashg'ulot bo'lib qolgan edi. Vaholanki, mening tengqurlarim o'yin-kulgu va vaqtixushlik bilan band bo'lar edilar. Validimning ijtihodlari tufayli men shu yoshimda "Ilm al-osor"(hadis ilmi) va "Ilm ar-ray" (xanafiy mazhabi fihi) bilimlarini to'liq egallab olgan edim", – degan so'zlari uning ilm cho'qqilarini egallashda otasining o'rni qay darajada ekanligidan dalolat beradi.¹

Musulmon ullaolari "Tarbiya"ni bir necha xil ta'rif qilganlar. Jumladan Imom Bayzoviy quyidagicha ta'riflaydi: "Tarbiya bir narsani asta-sekin kamolga yetkazishdir". Rog'ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta'riflaydi: "Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o'tkazib borib, batamomlik nuqtasiga yetkazishdir. Tarbiyaning ma'nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg'unlik va muvozanat bilan o'stirishdir". Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas'uliyatli va uzoq vaqt davom etadigan burchidir.²

Odob masalasini insoniyat tarixida to'laqonli ravishda islom boshlagan, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Islomda kishining hayotidagi har narsaning O'z odobi bor. Dunyodag odobga bag'ishlangan asarlarning asosini va ko'pligini Islom xalqlari vakillari tomonidan yozilgan asarlar tashkil qiladi, degan gapga zarracha mubolag'a yo'q. Uzoq va boy tarixga ega bo'lagan Markaziy Osiyo xalqlari O'zining ta'lim-tarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va tabiatga do'stlik, saxiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Darhaqiqat ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan madaniy meros milliy ma'naviyatimizning O'zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta'lim-tarbiyasiga keng foydalanish

1. "Zamonaviy oilada, farzand tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari" "Mahalla va oila nashriyoti" Toshkent 2021 yil, 47-bet

2 Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Baxtiyor oila. Toshkent "Hilol nashr" 2013 yil 339-340 betlar.

maqsadga muvofiqdir. Chunki “Ajdodlarimizdan qolgan meros millatimizning nafaqat o‘tmishi, shuningdek, istiqboli uchun ham kuch va fidoyilik manbai hisoblanadi.”³

Mana shunday mangu allomalar jumlasiga Ahmad Yassaviyni kiritish mumkin. Xo‘ja Ahmad Yassaviy O‘zining ma‘naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika beqiyos hissa qo‘sha olganligi olib borilgan izlanishlardan ayon bo‘lmoqda. “Xo‘ja Ahmad Yassaviyning nuqtai nazariga ko‘ra ayyorlik, gunohlarni yashirish, O‘zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xo‘ja Ahmad Yassaviy rostgo‘ylik, halollik, O‘z-O‘zidan talabchanlikni targ‘ib qiladi.”⁴

Yana bir yirik allomalardan biri Burxoniddin Marg‘inonoydir. Burxoniddin Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida, diyonat, imon, vijdon, burch, insoniylik xususidagi g‘oyalari, shaxsni har tomonlama va uyg‘un rivojlanishning vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Shu jihatdan qaraganda XXI asrda yashagan Islom ta‘limotining namoyandasi Burxoniddin Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, imon-e‘tiqod, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, mustaqil fikr xislatlari asosiy o‘rinni egallaydi.⁵

Taniqli O‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy “Tarbiya biz ucun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir” deb yozgan edi.⁶

Yosh avlodda yuksak ma‘naviy fazilatlarini kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an‘analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Insonlar O‘zligini chuqur anglashi, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishi, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvi, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg‘onishini ta‘minlash ma‘naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylandi.⁷

Yosh avlodni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash borasidagi ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Shu asnda yangicha yondashuvlar hayotga faol joriy etilmoqda. Darhaqiqat, bugungi glolallashib borayotgan davrda yoshlarimizning ongi va qalbini yod, tashqi buzg‘unchi mafkuraviy jarayonlardan asrash uchun ularda sog‘lom mafkuraviy immunitetni aynan oila, mahalla va ta‘lim muassasalari ijtimoiy hamkorligida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar jarayonida shakllantirishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

3 A.Haydarov. Inson kamoloti va milli-ma‘naviy qadriyatlar. Toshkent. Muharrir.2008 yil 47-bet

4 M.Xajiyeva.Xo‘ja Ahmad Yassaviyning ma‘naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat Toshkent. 2004 yil 10 bet

5 M.Shoxadjayev. Burxoniddin Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. Toshkent. 2006 yil 9-bet

6 Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent .O‘qituvchi. 1992 yil. 14 bet

7 San‘at – yoshlar nigohida. Magistrantlarning ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. T.: 2019 y

1. Olimov, T. H. (2019). SPIRITUAL AND MORAL ASPECTS OF THE FORMATION OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS OF HIGHER EDUCATION. *Theoretical & Applied Science*, (12), 662-665.
2. Olimov, T. H. (2020). The image of a modern teacher in the formation of civic culture among future highly educated specialists. *Pedagogical skill-Bukhara*, 5.
3. Olimov, T. H. (2019). Development issues of civil society and culture in the work of Eastern thinkers. *Pedagogical skill-Bukhara*, 2.
4. Olimov, T. H. (2016). Formation of self-awareness in youth. *Social and humanitarian sciences in the educational system.-Tashkent*, 4.
5. Olimov, T. (2020). BO'LAJAK OLIY MA'LUMOTLI MUTAXASISLARDA FUQAROLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM YO'NALISHLARI. *FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI*, 1(1), 20-27.
6. Olimov, T. THE ROLE OF NATIONAL SPIRITUALITY AND VALUES IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL CULTURE IN FUTURE SPECIALISTS WITH HIGHER EDUCATION.